

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**



**QIMMATLI QOG'OZLAR VA BUXGALTERIYA MA'LUMOTLARI  
O'QUV DASTURI**

**Bilim sohasi :** 400 000 – Bisnes, boshqaruv va huquq

**Ta'lim sohasi:** 410 000 – Bisnes va boshqaruv

**Ta'lim yo'nalishi:** 60410100 –Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)

**Samarqand-2024**

Fan/modul kodi QQBM305		O'quv yili 2024-2025	Semestr 3	ECTS - Kreditlar 4	
Fan/modul turi Tanlov		Ta'lim tili O'zbek/rus		Haftadagi dars soatlar 4	
1	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Qimmatli qog'ozlar va buxgalteriya ma'lumotlari		60	60	120

## 1.FANNING MAZMUNI

“Qimmatli qog'ozlar va buxgalteriya ma'lumotlari” fanida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobini yuritishning tashkiliy jihatlari, axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni, konsolidatsiyalashgan hisobotlarni tuzishni o'rganish tushuniladi, bu fan uchinchi kursning birinchi semestrda o'qitilishi rejalashtirilgan. Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobining nazariy asoslarini, unda qo'llaniladigan asosiy tamoyillar, usullarini o'rgatish, axborot texnologiyalaridan foydalanish, konsolidatsiyalashgan hisobotlarni tuzish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Fan mazmunini anglab yetish - talabalarning buxgalteriya ma'lumotlarini o'rganish, buxgalteriya hisobi hisobotlarini to'g'ri baholash va buxgalteriya hisobi jarayonlarini o'rganish usullari kabi muhimdir.

Qimmatli qog'ozlar va buxgalteriya ma'lumotlari - nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, ijodiy fikrlash jarayoniga buxgalteriya hisobini tashkil etilishida, axborot texnologiyalaridan foydalanishda, konsolidatsiyalashgan hisobotlarni tuzishda qonunlar, qarorlar va boshqa normativ hujjatlarni o'rni va ahamiyatini ochib berish.

## 2.ASOSIY NAZARIY QISM (MA'RUZA MASHG'ULOTLARI)

### 2.1. FAN TARKIBIGA QUYIDAGI MAVZULAR KIRADI

#### 1 mavzu. Qimmatli qog'ozlar va buxgalteriya ma'lumotlari faniga kirish

Buxgalteriya hisobi va tadbirkorlik faoliyati to'g'risida tushuncha. O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobini huquqiy tartibga solish. Buxgalteriya hisobi subyekt va obyektlari (moliyaviy hisobot elementlari). Buxgalteriya hisobi tamoyillari va korxonalarning hisob siyosati.

## **2 mavzu. Qimmatli qog'ozlar tushunchasi va uni tartibga solish**

Qimmatli qog'ozlar korxonaga qaydarajada kerakli. Qaysi xujjatlar bilan tartibga solinadi.

## **3 mavzu. Korxonada qimmatli qog'ozlarni hisobi**

Qimmatli qog'ozlar va ularning tuzilishi. Buxgalteriya hisobi schotlaridagi ikkiyoqlama yozuvda aks ettirish va uning mohiyati. Sintetik va analitik schotlar.«Balansdan balansgacha» hisob davri.

## **4 mavzu. Hujjatlashtirish va inventarizatsiya**

Hujjatlashtirish, uning mohiyati va ahamiyati. Inventarizatsiya qilish, uning turlari va o'tkazish qoidolari. Buxgalteriya hisobining registrarlari .ulardagi xato yozuvlarni tuzatish usullari. Buxgalteriya hisobi shakllari

## **5 mavzu. Kassadagi naqd pul mablag'larining hisobi. Hisob kitob va valyuta schotidagi pul mablag'lari**

Kassadagi naqd pul mablag'larining hisobi. Hisob kitob schoti bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish tartibi va hisobi. Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi va hisobi. Hisobdor shaxslar bilan hisoblashishlar tartibi va hisobi.

## **6 mavzu. Mehnat haqi hisobi**

Mehnatga haq to'lash shakllari, ish haqi va boshqa to'lovlarni hisoblash tartibi. Ishlab chiqarish va ish haqini hujjatlarda rasmiylashtirish. Ish haqi va boshqa to'lovlar bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar hisobi. Ish haqidan daromad solig'i va boshqa yig'imlarni ushlab qolish hisobi. Davlat maqsadli jamg'armalariga sug'urta to'lovlarini hisoblash, to'lash va xarajat qilish hisobi tartibi

## **7 mavzu. Moddiy qiymatliklar, inventar va xo'jalik buyumlari hisobi**

Materiallar, ularning tasnifi va baholash. Materiallar harakati hisobini hujjatlashtirish. Ombordagi materiallar hisobi.Buxgalteriyada materiallar hisobi. Inventar va xo'jalik jihozlari hisobi. Materiallar inventarizatsiyasi

## **8 mavzu. Asosiy vositalar hisobi**

Asosiy vositalar to'g'risida tushuncha va ularni qayta baholash. Asosiy vositalarning kelib tushishi. Asosiy vositalarning eskirishi (amortizatsiya) hisobi. Asosiy vositalarni qayta baholash hisobi. Asosiy vositalarni ta'mirlash hisobi. Asosiy vositalarni chiqib ketishi hisobi. Asosiy vositalarni ijaraga berish

hisobi

### **9 mavzu. Nomoddiy aktivlar hisobi**

Nomoddiy aktivlar va ularning guruhlari. Nomoddiy aktivlarning kelib tushishi va hisobi. Nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisobi. Nomoddiy aktivlarning chiqib ketishi va hisobi.

### **10 mavzu. Moliyaviy investitsiyalar hisobi**

Moliyaviy investitsiya tushunchasi, ularni tasnif qilish va baholash. Investitsiyalarning kelib tushish hisobi. Uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar qatnashish usuli hisobi

### **11 mavzu. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotish va mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiyasi**

Ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotish va ularning turkumlanishi. Tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini aniqlash usullari. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi. Yordamchi ishlab chiqarish harajatlari hisobi. Umumishlab chiqarish xarajatlari hisobi.

### **12 mavzu. Tayyor mahsulot, tovarlar va ularni sotish hisobi**

Tayyor mahsulot va ularni baholash. Tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va omborga kelib tushishi hisobi. Yuklab jo'natilgan tayyor mahsulotlar hisobi. Mahsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlarni sotish hisobi. Tovar operatsiyalarini hisobga olish.

### **13 mavzu. Davr xarajatlari va xususiy kapital hisobi**

Mahsulotni sotish xarajatlari hisobi. Boshqaruv xarajatlari hisobi. Boshqa operatsion xarajatlar hisobi. Umumxo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar hisobi

### **14 mavzu. Korxonalar faoliyatidagi soliqlar va yig'imlar hisobi**

Soliqlar va ularning guruxlanishi. Yurudik shaxslardan olinadigan foyda solig'ini hisoblash va hisobga olish tartibi. Qo'shilgan qiymat solig'ini(QQS) hisoblash tartibi va hisobini tashkil etish. Aylanmadan olinadigan soliqni hisoblash va hisobga olish tartibi.

### **15 mavzu.Moliyaviy hisobot**

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy hisobot shakllarini tayorlash va taqdim etish.

### **3.AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR**

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

- 1.Buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil qilish
  - 2.Buxgalteriya balansi
  - 3.Buxgalteriya hisobining schotlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv
  - 4.Hujjatlashtirish va inventarizatsiya
  - 5.Pul mablag'lari hisobi
  - 6.Mehnat haqi hisobi
  - 7.Moddiy qiymatliklar, inventar va xo'jalik buyumlari hisobi
  - 8.Asosiy vositalar hisobi
  - 9.Nomoddiy aktivlar hisobi
  - 10.Moliyaviy investitsiyalar hisobi
  - 11.Ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotish va mahsulotlar tannarxini kalkulyatsiyasi
  - 12.Tayyor mahsulot, tovarlar va ularni sotish hisobi
  - 13.Davr xarajatlari va boshqa xarajatlar hisobi
  - 14.Xususiy kapital va moliyaviy natijalari hisobi
  - 15.Korxonalar faoliyatidagi soliqlar va yig'imlar hisobi
  - 16.Moliyaviy hisobot
- Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda qo'yidagi dedaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarning maqsadini aniq belgilab olish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash.

### **4.MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR**

**Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:**

1. Buxgalter kasbiga qo'yiladigan talablar
2. Buxgalteriya hisobi xizmatini tashkil etish
- 3.Buxgalteriya hisobi axborot tizimlarining umumiy ta'rifi va buxgalteriya hisobida avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalari
4. Kichik biznes korxonalarida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish tizimlari
5. Yirik korxonalar buxgalteriya hisobi masalalarini kompyutorda qayta ishlash texnologiyalari
6. Soddalashtirilgan soliqqa tortish tizimida soliq hisobini tashkil etish va yuritish

7. Foyda solig'i hisobi
  8. QQS hisoblash tartibi va hisobini tashkil etish
  9. Korxonalar faoliyatidagi soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobi
  10. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy hisobot shakllarini tayyorlash va taqdim etish
  11. Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga sarmoyalarni hisobga olish va konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi
- Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyihaishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

#### **5.FAN O'QITILISHINING NATIJALARI (SHAKLLANADIGAN KOMPOTENSIYALAR)**

**Ushbu fanni muvaffaqiyatli tugatib, talabalar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladi:**

##### **Bilish va tushunish jihatidan:**

- nazariyalarni bilishi va tushunishini namoyish etish;
- buxgalteriya hisobi tamoyillarini bilishi kerak;
- moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini tushunishini namoyish etish;
- ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun zarur ma'lumotlarni buxgalteriya hisobi va hisobotlaridan olishni bilishi kerak;

##### **Tahlil jihatidan:**

- Xo'jalik jarayonlarni taxlil qilish, tartibga solish va sharhlash;
- Xo'jalik ma'lumotlarni yozma, raqamli, diagramma va grafik taxlillarda qo'llash;
- Xo'jalik muammolar va vaziyatlarni tahlil qilish, aloqalarni aniqlash va rivojlantirish;
- Xo'jalik hodisa va jarayonlarni tahlil qilish usullarini bilgan holda samarali qo'llash;
- Buxgalteriya qonunlarni, ilmiy tushunchalarning (kategoriyalarning) amal qilish xususiyatlarini, mexanizmlarini bilishi;
- Xo'jalik jarayonlarida kuzatiladigan muammolar bo'yicha echimlar qabul qilish.

##### **Baholay olish jihatidan:**

- iqtisodiy ma'lumotlar va ko'rsatkichlarni baholash;
- iqtisodiy tahlil va asossiz ko'rsatkichlarni farqlash;
- iqtisodiy qarorlar va hodisalar natijalarining noaniqliklarini bilish;
- iqtisodiy tafakkurni mantiqiy tarzda etkazish.

##### **.TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODLARI:**

- real vaziyatga asoslangan amaliy ishlarni bajarish;
- esse, tezis va maqolalar yozish;
- vaziyatli topshiriqlarni (keys-stadi) echish;

- jarayonli-yo'naltirilgan ta'lim;
- muhokamalarda ishtirok etish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- loyiha ishi bajarish;
- mustaqil ishlarni bajarish;
- taqdimot tayyorlash;
- turli darajadagi testlarni echish;
- so'rov o'tkazish;
- muammoni hal qilish.

## **7.KREDITLARNI OLISH UCHUN TALABLAR:**

Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni tula uzlashtirish, taxlil natijalarini tugri aks ettira olish, urganilayotgan jarayonlar xakida mustakil mushoxada yuritish va joriy, oralik nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriklarni bajarish, yakuniy nazorat buyicha yozma ishni topshirish.

## **ASOSIY ADABIYOTLAR**

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси – (Конунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон)
2. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ Кодекси. Кучга кириш санаси 01.01.2020 (қўшимча ва ўзгаришлар билан)
3. Гуломова Ф. Бухгалтерия ҳисобидан мустақил ўрганиш учун қўлланма. -Т. “Норма” 2013 .
4. Уразов К.Б., Пулатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. –Т.: «Инновацион ривожланиш нашриёт-матбаа уйи», 2020
5. Ташназаров С.Н. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари: Олий ўқув юртлари магистратура мутахассисликлари учун дарслик. – Тошкент: «IQTISOD-MOLIYA», 2019. – 584-б. <https://www.academia.edu>.

## **QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 24.02.2020 йилдаги ПҚ-4611-сон Молиявий Ҳисоботнинг Халқаро Стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида
2. Мирошниченко Т.А. Бухгалтерский финансовый учет и отчетность (продвинутый уровень): учебник. п.Персиановский: изд-во ДонГАУ, 2015
3. Уразов К.Б. Молиявий ҳисоб ва ҳисобот. Замонавий педагогик технологияларга асосланган кўргазмали маърузалар курси, 1-қисм. – Самарқанд, СамИСи, 2019.
4. Уразов К.Б., Пулатов М.Э. Бухгалтерия ҳисоби Дарслик.-Т: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 560 bet.

5. Уразов К.Б. Бошқа тармоқларда бухгалтерия ҳисобининг хусусиятлари. Дарслик. –Т.: “Fan va texnologiya”, 2019. 540 бет.

Fan dasturi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti O`quv uslubiy kengashining 2024-yil 29 avgustdagi 1-sonli yig`ilish bayoni bilan tasdiqlangan. (№ FD-02-24)

**Fan/modul uchun ma'sullar:**

Nurniyozov Feruz Abdurashid o`g`li - SamISI, “Buxgalteriya hisobi” kafedrası asissenti

**Taqrizchilar:**

**Abdullayev R.A.** - O`zbekiston Respublikasi buxgalterlar va auditorlar milliy assotsiatsiyasi Samarqand filiali Kengashining raisi

**Pashaxodjayeva D.D.** - SamISI, «Buxgalteriya hisobi» kafedrası dotsenti, PhD